

Hozirgi Qoraqalpog'iston hududi ikki buyuk daryo - Jayxun va Sayxun daryolari oralig'ida shakllangan, jahon madaniyatining qadimiy markazlaridan biri. Bu yerlarda bizning qadimiy tariximiz va madaniyatimizning beshigi barpo etilgan bo'lib, dunyoga mashhur olimlar, mutafakkirlar yetishib chiqqan muqaddas maskan hisoblanadi. Bu yerlarda yashagan ajdodlarimiz bir necha ming yillar davomida tabarruk qo'llari bilan qal'alar barpo etib, uni gullatishda o'zlarining boy tajribalariga tayangan holda mehnat qilganlar. Madaniy meros xalq taraqqiyoti yo'lining muayyan bosqichining ko'zgusi bo'lish bilan birga, kelajak avlodning ma'naviy yuksalishiga va dunyoqarashlarining mustahkamlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

**"Sahrodagi Luvr"** deb atalgan dunyoga mashhur I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeining noyob eksponatlari, yer osti saroyini eslatuvchi Mazlumxon suluvi, shuningdek, bir nechta arxeologik yodgorliklar tarixi bilan yaqindan tanishish natijasida, har bir yosh avlod qalbida faxr tuyg'ulari uyg'onib, ma'nан boyib, ona yurtiga bo'lgan mehrini yanada oshiradi. Bu madaniy meroslarga oid ajoyib obrazlar "Vatan" degan ulug'ver tuyg'u bilan uyg'unlashgan holda inson qalbida chuqur o'rashib, hayot mazmuniga aylanib bormoqda.

**Aqchaxon qal'a** – Sultan Uvays tog' tizmasidan 15 km janubda, Beruniy tumani hududida joylashgan yodgorlik fanda birinchi marta 1956 yilda V.N. Andrianov tomonidan kashf etilib, samolyotdan uning surati tushirilgan. 1982-1985-yillarda tadqiqotlar natijasida shaharning asosiy hududi aniqlanadi. 1995-yilda Aqchaxon qal'ada Qoraqalpog'iston-Australiya xalqaro ekspeditsiyasi o'z ishini boshlaydi. Yodgorlik to'g'ri to'rtburchak bo'lib, yuqori va quyi qal'adan iborat. Balandlik ustiga qurilgan markaziy binoga janubi-g'arbiy darvoza tomonidan eni 6 m. uzunligi 30 m. dan ortiq pandus (qiya yo'lak) orqali chiqqan. Shahardan mil. avv. VI-V asrlardan boshlab. IV asrgacha bo'lgan sopol idishlar, haykallar (Anaxita, Siyovush xudolari, ot, tuya), tangalar va h.k. materiallar topiladi.

**Qo'yqirilgan qal'a** – To'rtko'l tumanida joylashgan mil. avv. IV-II asrlarda maqbara-xram astronomik markaz vazifasini bajargan antik davrning eng ajoyib durdona yodgorligi. Astronomik kuzatish joyi bo'lgan. Qo'rg'onning umumiyligi diametri 865 m. to'qqizta minorasi (minora) bor devor bilan o'rabi olingan. Tashqi devor atrofida eni 15 m, chuqurligi 3 m. o'rn, handaq qazilgan. Markaziy qismdag'i ikki qavatlari uyning diametri 44 m. Markaziy bino bilan devor orasidagi masofa 14,5 m. Markaziy bino bilan devor orasidagi masofa 14,5 m. Yodgorlik 1938, 1952-1957-yillarda S.P. Tolstov boshchiligidagi XAEE tomonidan o'r ganilgan.

**Yonbosh qal'a** - To'rtko'l tumanida joylashgan. Mil. avv. IV asrga oid. 1939-1940-1945-yillarda S.P. Tolstov tomonidan o'r ganilgan. Maydoni 3,5 hektar. 200x170 m. Balandligi 9,5-10 m bo'lgan ikki qator devorlar bilan o'rabi olingan. Devorlar orasidagi odam yurishi uchun mo'ljallangan yo'lakning eni 2,8 m. Shahar Axomaniylar davrida satrapalardan birining qarorgohi bo'lgan. 40x10x40 sm. o'lchamdag'i g'ishtlar bilan o'r ilgan. Shaharda 100 o'rini 200 xonali turar joy joylashgan.

**To'k qal'a yodgorligi** - Nukusdan 14 km. shimoli-g'arbda, To'k tog'inining kichik tabiiy tepaligida joylashgan. Tepalik yon-atrofdan 11 m balandlikda bo'lib, uning g'arbiy yonbag'ri tik, qolganlari yoyilma va jarliklar bilan kesishgan. G'arbiy tomonda kengligi 200 m dan ortiq katta eski daryo o'zagi yaqqol ko'rindi. Yodgorlik atrofi bir necha bor suv ostida qolgani sababli aholi yashagan joylar izlari yaxshi saqlanmagan. Umumiyligi maydoni 8 ga. Dastlabki arxeologik tadqiqotlar S.P.Tolstov tomonidan 1946-yilda olib borilgan. Qang'davriga mansub bo'lgan yodgorlikning janubi-sharqiy devori 110 m, shimoli-sharqiy devori 78 m. Qo'rg'on devori har 28 m oraliqda yarim doira shaklidagi eni 6 m. bo'lgan minoralar bilan mustahkamlangan. Gishtlarining o'lchami 40x40x10 sm. Yodgorlik mil. avv. IV-III asrlar er. XI asrlar bilan belgilanadi.

**Ayoz qal'a** - Kushonlar madaniyati davridan (er. avv. III-II asrlar) Orol dengizidan 200 km. Uzoqda, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Yodgorlik birinchi marta 1939-1940-yillarda S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'r ganilgan. Aholi punktlarining katta guruhi orasida uchtasi alohida ahamiyatga ega. Ulardan birinchisi - mustahkam devor bilan o'ralgan minora va labirintli Ayoz-qal'a-3 yodgorligi. Qal'a ichida keng saroy qoldiqlari bor. Shimoli-g'arbda Kushonlar davrida qurilgan va er. V-VII asrlarda qurib bitkazilgan Ayoz-qal'a-2 qal'asi joylashgan. Ayoz-qal'a-1 yodgorligi Ayoz-qal'a tepaligida, Ayoz ko'lidan uncha uzoq bo'lman joyda joylashgan bo'lib, u yaxshi saqlangan. Aniqlanishicha, Ayoz-qal'a-1 Kushonlar podsholigi chegaralarining bir qismini qo'riqlagan harbiy istehkom bo'lgan. Qazishlar davomida temir xanjarlar, pichoqlar, nayza va o'q uchlari, bronza va oltin buyumlar topilgan.

**Gavur qal'asi** - Xo'jayli tumanidan uncha uzoq bo'lman joyda, Misdakxon nekropoli yonida Gavur shahri (mil. avv. IV asr - er. IV asrlar) joylashgan. Gavur qal'a Xorazmning shimoliy qismi uchun qal'a vazifasini bajargan. Bir necha asrlar o'tib uning paxsa devorlari va minoralari saqlanib qolgan. Shaharning maydoni 200x450 metrni tashkil etadi. Gavur qal'a o'lkadagi tik va eng baland tepalikda joylashgan, shuning uchun shahar minoralari uzoqdan ko'rinish mumkin. Shaharga kiraverishda murakkab labirint topilgan.

**Tuproq qal'a** – Ellikqal'a tumani hududida joylashgan, to'g'ri to'rtburchakli (500-350 m), ikki qator qalin devorlar bilan o'ralgan, atrofi quduq qazilgan. Shaharga janubiy devor o'rtasidagi ko'rik orqali kirgan. Yodgorlik Afrig'iylar hukmronligi davrida qadimgi Xorazm poytaxti bo'lgan, deb hisoblanadi. Bu sulola o'z hokimiyatini dastlab Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Tuproq qal'asi zaminiga o'rnatgan. Madaniyatda Kushonlar podsholigi bilan, xalq dunyoqarashida hinduizm, buddaviylik, zardushtiylik va qadimgi yunon diniy g'oyalarini ko'rishimiz mumkin. Eski Xorazm yozuvi Tuproq qal'adan topilgan. 1945-1950-yillarda S.P.Tolstov rahbarligida yodgorlikda arxeologik qazishmalar olib borildi. Natijada monumental rangli surat va haykaltaroshlik bilan bezatilgan 150 ta zal va xonalardan iborat saroy qoldiqlari topildi. Tasvir uslubi jihatidan Ajantadan ma'lum bo'lgan ranglarga juda o'xshaydi. Rasmlar nafaqat podsho saroyidan, balki oddiy uylardan ham topilgan. Tuproq qal'a yodgorligi YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

**Qizil qal'a** – Beruniy tumanidan 25 km. shimolda va Tuproq qal'a yodgorligidan 3 km. g'arbda joylashgan. Yodgorlikni ilmiy jihatdan birinchi marta mashhur tarixchi va arxeolog S.P. Tolstov 1938-yilda tadqiq qilgan. Qizil qal'a yaqin atrofda joylashgan Tuproq qal'aning posti bo'lib xizmat qilgan. Esdalik er. I-II asrlarda Tuproq qal'a bilan bir vaqtida qurilgan va IV asrgacha xizmat qilgan. Keyinchalik Xorazmshohlar davrida (XII-XIII asrlar boshi) shahar qayta tiklangan va mo'g'ullar istilosи davrida vayron bo'lgan.

**Guldirsin qal'asi** - Ellikqal'a tumanida joylashgan. I-II asrlarga, Kushonlar davriga oid yodgorlik. Maydoni 280x230 m. 13-15 m keladigan ikki qator devorlar bilan o'ralgan. IX-X asrlarda shahar devorlari qayta qurilgan. Ya'ni tashqi tomoni paxsa devor bilan qoplangan. Qo'rg'onning asosiy devorlari bilan o'rab turuvchi devorlari orasidagi masofa 2-4 m. Katta Guldirsin qal'asi ilk bor Ya.G'ulomov tomonidan kashf etilgan. Keyingi davrda S.P. Tolstov, E.E. Nerazik tomonidan o'r ganilgan. 1989-1990-yillarda I.V.Savitskiy nomidagi san'at muzeysi mutaxassislari tomonidan o'r ganilgan. G'arbiy devorning balandligi 11-13 m. eni 2-5 m bo'lib saqlangan. Qal'a juftlangan minoralar (minoralar) bilan mustahkamlangan. Minoralar orasidagi masofa har xil.

**Chilpiq** - zardushtiylikka oid dafn minorasi (tinchlik minorasi), u Nukusdan 45 km. sharqda joylashgan. Yodgorlikda 1940-yillarda S.P. Tolstov va Ya.G'. G'ulomovlar, 1960-yillarda Yu.P. Manilovlar arxeologik kuzatish ishlarini olib borgan. Chilpiq I-IV-VII-VIII, IX-XI asrlarga oid yodgorlik. Halqaning pastki eni 130-150 metr, balandligi 30-33 metr tabiiy tepalik ustiga qurilgan

berk bo‘lman aylana shaklidagi inshoot. Chilpiqning Amudaryoga qaragan kun botish tomonida joylashgan darvozasiga maxsus ishlangan umumiy uzunligi 20 metr bo‘lgan, 75 ta zinapoyadan iborat, ikki bo‘yi paxsa devor bilan qoplangan zina orqali chiqqan. Cho‘l fasllarining almashinishi, Amudaryo suvining tashib kelishi, qaytishi kabi dehqonchilik uchun muhim hodisalarini oldindan kuzatish uchun astronomik kuzatish va kalendar xizmati yuritish joyi bo‘lgan.

**Jampiq qal'a** - Beruniy tumanida joylashgan. Yuzi 12 ga. 420x288 m. Devorlarining balandligi 9 m, eni 5,6-5,8 m. Devorlarining yuqori qismining kengligi 3,4-3,6 m. Bir-biridan 70 m. va undan ham uzoq masofada joylashgan oltita minorasi bor. Minoralarning eni 4,8 m., uzunligi 1,25 m. Devorlari 40-38x12x40-38 m o'lchamdagagi g'ishtlar bilan o'yib ishlangan. Shahar haqida dastlab 1863-yilda Xivada bo'lgan Vamberi yozma ma'lumot beradi. 1940-yilda S.P. Tolstov boshchiligidagi XAEE tomonidan o'r ganilgan. 1965 yilda A.V. Gudkova, Yu.P. Manilovlar tomonidan o'r ganilgan. 1971, 1973, 1978-1981, 1983-yillarda I.V.Savitskiy nomidagi san'at muzeyi mutaxassislari tomonidan o'r ganilgan. 1985-1987-yillarda arxeolog A.Aliakbarova tomonidan o'r ganilgan.